



AXLOQIY QADRIYATLAR VA OILAVIY BOSHQARUVDAGI O'ZGARISHLAR

**Kenjayeva Dilnozaxon
Sadirdinovna**

QDPI Psixologiya kafedrası o'qtuvchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada oila, axloq, qadriyat tushunchalarining tub mohiyati va oiladagi axloqiy qadriyatlarning qanday shakllanishi kerakligi, bu qadriyatlar oiladagi farzandning kelajagi, uning komil inson bolib yetishishida qanchalik darajada muhim omil bolib xizmat qilishi haqida soz yuritiladi. Axloqiy qadriyatlarning barcha jabhada eng muhim omil ekanligi, oilada farzandlarga bu borada yetarlicha bilimlar berilishi kerakligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, saodat, axloq, tarbiya, qadriyat, milliy, komil, yuksak, mahalla, talim, poydevor.

Kirish. Oila muqaddas urf - odatlarimizni saqlaydigan tarbiya o'chog'idir. Yoshlarning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakatlari, xulq-atvorlari dastlab oilaviy munosabat madaniyatida ifodalanadi. Oilaviy munosabat madaniyati nima? Bu - oilada insonga hos va mos sharoitlarni yaratish, oilaning vazifalarini to'la bajarish, oilaviy turmush tarzini to'g'ri shakllantirish, oila a'zolarining xulq - odobi, dunyoqarashi, mafkurasini, oilaviy hayotning davomiyligini ta'minlashdir. Mustaxkam oila mustaxkam jamiyatning asosidir. Shunday ekan jamiyat oilalarni mustaxkamlash, oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Oila, jamiyat va davlat bilan o'zaro bog'liq bo'ladi va ular bilan bir vaqtda rivojlanib boradi. Oila nafaqat axloqiy balki, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun jamiyat va davlat oilaning farovon bo'lishidan manfaatdor bo'ladi. Oila - hayotning abadiyligini ta'minlovchi muqaddas maskan. Oila - kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Unda jismonan soglom, manan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli insonni voyaga yetkaziladi. Oila hayotining asosiy maqsadi aholini qayta tiklash va bolalar tarbiyasidir. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev oz nutqida oilaga shunday tarif berib o'tadi: "Ozbek xalqi azaldan oilaga muqaddas qadriyat sifatida qaraydi. Xalqimizda "Vatan ostonadan boshlanadi"- degan naql bor. O sha ostona bizning mo jazgina oilamiz deb bilaman. Bizga bolalik chog larimizdan boshlab oilaning qanchalar muqaddas dargoh ekanligi, farzandning ulgayib, kamol topishida, tarbiyasida uning roli qanchalar muhim ekanligi haqida orgatib kelishgan. Oilaning qay darajada saodat maskani ekanligi

togrisida Davlatimiz rahbarining sozlariga etibor qaratsak: "Oila - mehr va baxt qorgoni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho nemat bor, insoniy qadr - qimmat va manaviyat bor. Oilaviy baxt bu - eng ulug' saodatdir".

Asosiy qism. Axloq - kishilarning bir-biriga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Zamon jadallashib bormoqda. Hozirgi kunda maktab o'quvchilarining kundaligi ham onlayn formatda ekanligini ko'rmoqdamiz. Biz maktabda o'qigan paytimizda kundalik daftaramizning pastki qismida "xulqi" deb yozilgan joy bolar edi va unga ustozlarimiz bir hafta davomida xulqimiz qanday bo'lganligini yozib berishardi. "Alo", "Namunali", "Yaxshi", "Qoniqarli" kabi darajalar bilan belgilanar edik. Men kabi kundalik daftar tutgan yoshlar axloqning ilk korinishini "xulq" tushunchasi bilan mana shu paytda anglagan bo'lsak ajab emas. Bugun esa ulg'ayib uning asl ma'nosini va har jabhada eng muhim tamoyil ekanini o'rgandik. Axloq haqida Genrix Geyn: "Axloq qalbning aqlidir", Gyugo Viktor Gari esa: "Axloq haqiqatlarning gullashidir", -deydi. Atrofimizda "Axloqingizni gozal qiling", -degan sozlarni ko'p bora eshitamiz. Axloqni har narsadan ustun qoyadilar. U insonlar ichida men ham borman. Zotan, men ham axloqni ilmdan ham ustun qoyuvchilar safidaman. Shu paytda Aristotelning fikri yodimga tushdi: "Kim ilmlarda ilgor bolsa, lekin axloqda ortda qolsa, oldinga qaraganda koproq ortga ketadi". Bir dostim menga shunday degan edi: "Insonlarga ularning axloqi bilan emas, oz axloqing bilan muomalada bol". Birinchi bora eshitganimda yaxshi anglamadim, ammo keyin yaxshigina tushundim va hayotimda doimiy qollaydigan boldim. Bir inson sizga yaxshi axloq bilan muomala qilmasa, "Salomingga yarasha alik", -deb siz ham unga xuddi u sizga qilgani kabi muomala qilmang, shu qadar gozal axloq bilan muomala qilingki, ozining sizga qilgan axloqsizligidan uyalsin va xulqini yaxshi tarafga o'zgartirsin. Axloq va tarbiya tushunchalari bir-biriga juda bog'liq tushunchalardir. Tarbiya to'g'risida faylasuf olimi L.Muhamedjanovanning fikricha: "Tarbiya - avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, talim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqa tasiri ostida jismonan sog'lom, ma'nadan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha.

Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy va manaviy ahamiyatini korsatish uchun qollanadigan tushuncha. Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat nematlarini, hodisalari majmuyini tushunmogimiz lozim. Qadriyatlar har bir millatning otmishi, buguni va kelajagini namoyon etuvchi bamosoli bir kozgu. Har bir xalqning oz qadriyatlari boladi, albatta. Axloqiy qadriyatlar va oilaviy boshqaruvdagi o'zgarishlar ijtimoiy hayotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim faktorlar bo'lib, ular har doim jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlari bilan bog'liq bo'ladi. So'nggi yillarda bu o'zgarishlar ko'plab aspektlarda kuzatilmoqda. Keling, ularni ikki asosiy yo'nalishda ko'rib chiqamiz: axloqiy qadriyatlar va oilaviy boshqaruv.

1. Axloqiy qadriyatlar:

Axloqiy qadriyatlar — bu jamiyatning hayotini tartibga soladigan, to'g'ri va noto'g'ri, yaxshi va yomon, adolat va nohaqlik kabi tushunchalarga asoslangan me'yorlar

to'plamidir. So'nggi yillarda globalizatsiya, texnologik rivojlanish va ijtimoiy o'zgarishlar sababli bu qadriyatlar o'zgarishi mumkin.

Individualizm va kollektivizm: Bugungi kunda ko'plab jamiyatlarda individualizmning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu o'z navbatida, shaxsiy erkinlik, shaxsiy manfaatlar va huquqlarga e'tiborning oshishiga olib kelmoqda. Ammo, ba'zi madaniyatlarda, ayniqsa Sharq va rivojlanayotgan mamlakatlarda, kollektivizm, oilaning va jamiyatning manfaatlarini yuqori qo'yish saqlanib qolmoqda.

Ochiqlik va tolerans: Hozirgi vaqtda ijtimoiy axloqiy qadriyatlarda ko'plab o'zgarishlar ro'y bermoqda. Yangi va ilg'or qadriyatlar, masalan, jinsiy tenglik, etnik tenglik, diniy erkinlik va boshqa ijtimoiy huquqlarni himoya qilish kabi masalalar jiddiy muhokama qilinmoqda. Ayni paytda, global darajada, tolerantlik va bir-birini qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Texnologiyaning roli: Texnologiya va internet axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Internet orqali axloqiy normalar va fikrlar tezda tarqaladi, bu esa yangi axloqiy me'yorlarni va shakllarni kiritish imkonini beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali axloqiy muammolar — soxta ma'lumotlar, yolg'on axborot, shaxsiy hayotni buzish va boshqalar ko'proq muhokama qilinmoqda.

2. Oilaviy boshqaruvdagi o'zgarishlar:

Oilaviy boshqaruv — bu oiladagi qarorlar qabul qilish, resurslarni taqsimlash va kunlik faoliyatni tashkil etish jarayonidir. So'nggi yillarda oilaviy boshqaruvda ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Gender tengligi: Oilaviy boshqaruvda ayollar va erkaklarning roli sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Dastlabki an'anaviy oila tuzilmasida erkak oilaning boshqaruvchisi, ayol esa uy-ro'zg'or va bolalar tarbiyasiga mas'ul edi. Bugungi kunda ayollar o'z kareralarida muvaffaqiyat qozonishmoqda, va ko'plab oilalarda ayollar ham moliyaviy va boshqaruv qarorlarida teng ishtirok etishmoqda.

Ota-onalar o'rtasidagi rollar: Ota-onalar o'rtasidagi rollarning bo'linishi ham o'zgarayotgan bir jarayon. Avvalgi davrlarda ota oiladagi yetakchi bo'lib, ayol esa uyda bolalarga g'amxo'rlik qilardi. Hozirgi kunda bu rollar ko'pincha teng taqsimlanadi, masalan, ota-onalar birgalikda bolalarga g'amxo'rlik qilishadi, uy-ro'zg'or ishlarini birgalikda bajaradilar.

Ijtimoiy o'zgarishlar va oilaviy tuzilma: Oilaviy tuzilmada o'zgarishlar ham seziladi. An'anaviy yadro oilasi (ota, ona va bolalar)dan tashqari, bugungi kunda ajrashgan oilalar, yagona ota-ona, yolg'iz ota yoki ona, va turli xil turmush tuzilmalari keng tarqalgan. Bu o'zgarishlar oilaviy boshqaruvning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Texnologiya va oilaviy boshqaruv: Texnologiya oiladagi boshqaruvga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, smartfonlar, uy-ro'zg'or texnikalari va boshqa raqamli vositalar oilaviy hayotni yanada qulayroq qiladi. Biroq, bu texnologiyalar oilaviy aloqalarga, farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin — ba'zi hollarda bu oila a'zolarining bir-biridan ajralishiga yoki ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Bizning ozbek xalqimizning ham bir-biridan gozal qadriyatlarimiz bor. Ular bizning qon qonimizga singib ketganki, agar birortasida eksiklik korsak yoki his qilsak g'alati bo'lib ketamiz. Masalan, bizda keksalar doim hurmatda boladilar. Bu buyuk qadriyatlarimizdan bin. Agar kochadami, uydami, qayerda bolsa ham keksa

insonlarga hurmatsizlik qilinganining guvohi bo lib qolsak jim turmaymiz. Hurmatsizlik qilgan insonga tanbeh beramiz. "Menga nima?",-demaymiz hech qachon. Doim boshqalarni haqida ham qayg urib yashaymizki, bu ham biz uchun qadriyat darajasiga chiqqan. Nafaqat butun xalqning, balki oilalarning ham qadriyatlari bor. Shunday oilalar borki, dasturxon atrofiga barcha yigilmaguncha, hech kim ovqatga qol uzatmaydi. Umumiy xalqimizning qadriyatida esa kattalar boshlamasidan oldin ovqatga qol uzatilmaydi. Bu ham gozal axloq ila yoshi katta insonlarni hurmat qilmoqdir. Xalqimizda: "Oila - qadriyatlar beshigi ", "Mahalla - qadriyatlar beshigi",-degan jumlalar bor. Biz bolalik chog imizdanoq barcha qadriyatlarni eng kop oilamizdan, mahallamizdan organamiz. Shu sababli mana shunday jumla paydo bolgan bolsa ajab emas. Qadriyat deyilganda faqat turmush tarzimizdagi axloqiy odatlarimiz bilan cheklanib qolmasdan, milliy tilimiz, bayramlarimizni ham ayta olamiz. Tilimiz ham qadriyatimizdir. Navro z bayramimiz qancha yillardan beri qadrlanib, nishonlanib kelinadi. Biz tugilishimiz bilan onamizning allasini qalbimizga jo qildik. Onamiz bizga o z tilimizda alla aytdiki, eng qadrlı so zlarimizni tilimizda so yladik. Insonga o zligidan, tilidan qadrlıroq boshqa narsa bo lmas kerak. Qadriyatlarimiz bizning ozligimizdir. Oila - axloqiy qadriyatlar beshigi sifatida. Biz yuqorida oıla, axloq, qadriyat tushunchalarining barchasiga ta rif berdik, angladik. Endi esa oilada axloqiy qadriyatlarıning shakllanishi haqida so z yuritamiz. So z mulkning sultoni bo lgan Alisher Navoiyning kichik bir misralari bor: " Tug'ib tashlab bilan bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizga, Vujudi tarbiyat topsa, bolur ul rahnamo sizga. Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bolur olim, Buzilsa xulqi, Luqmon ogli bolsa, bolgusi zolim". Farzand dunyoga kelganida eng boshlangich tarbiyani oiladan oladi. Qadriyatlarni ham, axloqni ham, yaxshilig-u yomonlikni ham oiladan organadi. Hali mahallaga, maktabga chiqishidan oldin ham dunyo haqidagi, odamlar haqidagi ilk tasavvurlarini oilasidan oladi. Kelajakda qanday inson bolishini eng birinchi orında ota-onasi bergan tarbiya hal qiladi. Shuning uchun ham barcha axloqiy qadriyatlar oilada shakllanadi, deb aytmogdamiz. Maktabda ustozlarimizdan, ko' chada otaxon va onaxonlarimizdan "Qush uyasida ko rganini qiladi",-degan so zni bir marta bo lsa ham eshitmagan yoshlar bolmasa kerak. Oilaning mustahkam bolishi, oıla azolarining axloqiylik darajasi undagi muhitga bogliq. Qaysi oilada soglom muhit hukm sursa, uning ravnaqi, baxtliligi taminlangan bo ladi. Bu maqollar-u hikmatli so zlari barchasi haqiqatdir. Barcha tarbiya va ta limning bosh poydevori oiladan boshlanadi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning shunday sozlari bor: " Muxtasar ayganda, hammamizga ayon bo lishi tabiiyki, oıla soglom ekan - jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan - mamlakat barqarordir". Jadid adabiyoti namoyondalari ham eng kop oıla mavzusiga, farzand tarbiyasi uning roli naqadar katta ekanligiga doir ko pgina asarlar yaratganlar. Ular orasida Mahmudxoja Behbudiyning "Padarkush" asariga etibor bersak, ota ilm-u ziyoda uzoq, faqat pul topish dardidagi bir inson edi. Xosh, uning farzadiga tarbiya berishga, nasihat qilishga xohishi yoki vaqti bor edimi? Yo q! Mana shu uchun ham farzandi kattalarni hurmat qilish, yomonlik qilmaslik, harom ichimliklar ichmaslik kabi oilada o rgatiladigan nasihatlardan bexabar qoldi va yomon ishlar qildi. Afsuski, bunday holatlar hozirgi kunda ham talay ekanligiga guvohmiz. Pul topish dardida yurgan ota farzandining tarbiyasi haqida o ylab ham kormayapti, ona esa uyda bo lishiga qaramasdan telefondan yoki uy ishlaridan bo shamayapti. Bola tarbiyani uyidan ololmayapti, ko' chadan qidirmoqda. Buning

oqibatida zararli illatlar avj olib bormoqda. Voyaga yetmagan yoshlar orasida o'g'irliklar, jinoyatlar kuzatilmoqda. Buning eng tubida oilada vaqtida qaratilmagan etibor va berilmagan tarbiya deb aytish mumkin. Hozirgi kunda zamonaviy oilalardagi eng katta muammoni ijtimoiy tarmoqlar deb aytishimiz mumkin. Ularning foydalari-yu zararlari haqida juda kop bahs-munozaralar bolmoqda. Ammo barchamizga malum, ularning ham foydasi, ham zarari bordir vabuni muhofaza qilish ham ota-onaning vazifasi deb bilaman. Telefondagi zararli oyinlar oqibatida kichik yoshdagi bolalarning miyasi zaharlanmoqda. Ular oyinning ichiga kirib ketmoqdalar, oyindagi qahramonlarga taqlid qilmoqdalar. Bularning oldini olish, ularni to'g'ri yo'lga davat qilish ham ota-onalarning qolidadir.

Xulosa.Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bir insonning komil inson bolib voyaga yetishida eng muhim rolni oila o'ynaydi. Eng boshlang ich qadamni ham u qo'yadi. Farzand barcha qadriyatlarni va tarbiyani oiladan oladi. Mavzuning dolzarbligi ham aslida shu. Hozirgi rivojlangan va rivojlanayotgan davrda farzandlar tarbiyasi judayam muhimdir. Ota-onalar ko'chadagi ishlaridan vaqt ajratib, farzandi tarbiyasi uchun qayg'urishi kerak bo'lgan zamondamiz. farzandlarning kelajakda barchaga foydasi teguvchi yaxshi fazilat egasi bo'lishiga ham o'sha biz so'z yuritayotgan oila sabab boladi. Shunday ekan, farzand dunyiga kelishi bilan, balki hali dunyaga kelmasidan avval uning tarbiyasi boshlash va unga barcha axloqiy, go'zal qadriyatlarimizni singdirmogimiz kerakki, oz ilmi bilan, ziyosi bilan, komilligi bilan yurtimizning asil farzandi bolsin.

Adabiyotlarroyxati.

1. M.A.Nurmatova, L.A.Muhammadjonova. Manaviyatningaxloqiyasoslari. T.: "Universitet", 2013. -113-b
2. https://uza.uz/oz/posts/zamonaviy-bilim-va-yetakchilik-qobiliyatiga-egaxotin-qizlar-millatimizning-oltin-fondi_247069
3. L.A.Muhammadjonova "Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi" Toshkent.Olam Nashriyoti 2023y 201-bet
4. I.A.Karimov. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. T., "Manaviyat", 2008, 58-bet
5. Лалихон Ашуралиевна Мухамеджанова, & Комил Кадирович Инаков (2023). РОЛЬ ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ СЕМЕЙНЫХ РАЗВОДОВ. Academic research in educational sciences, 5 (NUU Conference 2), 8-18.

351April 24, 2024